



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

QAHRAMONLIK IDEALLARI ASOSIDA YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY JIHLTLARI

Pulatov Baxodir Abduraupovich

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti

Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Harbiy ta'lim fakulteti kursanti

qodirovsamandar07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola qahramonlik ideallari asosida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning falsafiy jihatlari hamda Harbiy xizmat axloqining mohiyati, uning asosiy tushunchalari va o'ziga xos xususiyatlari, harbiy xizmatning axloqiy asoslari va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida axloqiy tarbiya masalalariga oid ilmiy-ma'rifiymanbalarda harbiy xizmatchilar axloqi – vatanparvarlik, mardlik, eng zamonaviy jang qurollari va vositalarini bilish, har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmaslik, Harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: mardlik, jasurlik, qo'rqmaslik, qahramonlik, botirlik, kuchlilik, shuhratsevarlik, mardonavorlik, bardoshlilik, dovyuraklik, fidoiylik, masuliyatlilik, sadoqat, g'urur, vatanparvarlik, qaxramonlik, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari

Qahramonlik ideallari asosida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg'u bo'lib, uning mazmuni vatanga mehr qo'yish, vatanni himoya qilish, uning havfsizligi va yaxlitligini ta'minlashga bevosita va bilvosita mas'ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam harbiy vatanparvarlik o'zidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qo'yishi talab etadi. Harbiy vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko'rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo'ladi.

Hozirgi davrda harbiy vatanparvarlikning asosini - yurt tinchligi belgilab beradi. Bugungi tahlikali zamonda Qurolli kuchlarimiz qudratini oshirish, milliy armiyamizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash - Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ko'z qorachig'iday asrash ushbu metodologiyaning asosiy sharti va kafolati hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, harbiy vatanparvarlik milliy merosimizning qadimiy tarixi va ma'naviy manbalariga borib ulanadi. Jumladan, "Avesto" adabiy yodgorligida, "Go'ro'g'li", "Alpomish" singari qahramonlik dostonlarida, "Temur tuzuklari", "Mahbub ul-qulub", "Turkiy guliston yohud axloq" kabi ijtimoiy-axloqiy pandnomalarda harbiy vatanparvarlik g'oyalarining targ'iboti



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

bilan bog'liq masalalarni axloqshunoslik kontekstida o'rganish g'oyatda dolzarbdir. Chunki, yoshlarda g'urur, or-nomus, sha'n, ishonch va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish bevosita harbiy vatanparvarlik shartlari asosida reallikka aylanadi.

Bundan tashqari, Spitamien, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug'lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog'liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatlari aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Harbiy vatanparvarlik axloqiga doir ma'naviy merosimizda dushmanga qarshi urushda hukmdor va qo'shinlar adolat qoidalariga rioya qilishlari kerakligi uqtiriladi: bu dushman ustidan muqarrar g'alaba qozonishni ta'minlaydi. Buning uchun hukmdor qobiliyatli, uzoqni ko'ruvchi, ma'lum ma'noda "josuslik" san'atiga ega bo'lishi kerak. Bu borada Jaloliddin Davoniy askarlarda 3 ta fazilat mujassam bo'lmog'i kerakligini ta'kidlaydi. Bular a) jasurlik, b) zukkolik, v) mohirlik. Chunonchi, jangda o'zini ko'rsatgan askarlarni munosib baholash va rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Podshoh hatto, dushman ustidan g'alaba qozonganidan so'ng ham hushyorligini yo'qotishi yaramaydi. U mamlakatning harbiy qudratini dushmandan maxfiy saqlashi lozim. Davoniyning fikricha, askarlar eng shijoatli kishilardir, chunki ular davlat chegarasi va qal'alarini qo'riqlaydilar. Shuning uchun ular davlatning eng hurmatli kishilari hisoblanadilar. Davlat boshlig'i ularga doim moddiy yordam ko'rsatib, har bir askarni e'zozlashi lozim.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - bu O'zbekiston fuqarolarining Ona yurtimizni mardlarcha himoya qilishga qodirligi va tayyorligi, askarlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy tizimidir. Harbiy vatanparvarlik fazilatini shakllantirishda tarbiyaning mazkur shakli o'z oldiga quyidagilarni asosiy vazifa qilib qo'yadi:

- harbiy xizmatchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini mustahkamlash;
- mamlakatni mudofaa qilish va davlatning qurolli kuchlarini jangovor kuchini mustahkamlashda javobgarlik hissini paydo qilish;
- jangovor topshiriqlarga qat'iyatlilik va yurtga sadoqat tuyg'usini shakllantirish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi umumiy talqindagi vatanparvarlikdan qator jihatlarga ko'ra farqlanishini tadqiqotchi G.M.Ergasheva quyidagicha izohlaydi:

- birinchidan, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi O'zbekiston fuqarolarini Vatanni qurol bilan himoya qilishga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan;

- ikkinchidan, harbiy vatanparvarlik asosini O'zbekiston Qurolli Kuchlarining udumlari tashkil etadi, vatanparvarlik tarbiyasi asosini esa harbiy udum bilan bir qatorda mehnat udumlari tashkil qiladi;

- uchinchidan, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga nisbatan hurmat va g'ururlanish, harbiy xizmatchi bo'lishga xohish va intilish hamda qo'lida qurol bilan mustaqil vatanni himoya qilish hissini uyg'otadi. Vatanparvarlik tarbiyasi esa Vatanga sodiqlik, O'zbekiston fuqarosi o'z davlatining buyukligini, kuchliligini



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

mustahkamlash, mustaqilligini himoya qilish hissini rivojlantiradi. Shu ma'noda aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasi – bu harbiy boshqaruv organlari va mansabdor shaxslarning tizimli va maqsadli faoliyati hisoblanadi. Harbiy xizmatchidan bu faoliyatga doimo tayyor turishlik talab etiladi.

Harbiy xizmat axloqining mohiyati, uning asosiy tushunchalari va o'ziga xos xususiyatlari, harbiy xizmatning axloqiy asoslari va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida axloqiy tarbiya masalalariga oid ilmiy-ma'rifiy manbalarda harbiy xizmatchilar axloqi – vatanparvarlik, mardlik, eng zamonaviy jang qurollari va vositalarini bilish, har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmaslik, Harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajralib turishi ta'kidlanadi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning axloqiy qoidalari Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlarda o'z ifodasini topgan. Harbiy xizmatchilar axloqining jamiyat rivojida tutgan o'rni mazkur mamlakat aholisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya'ni ularni tashqi xavf-xatar - dushman tajovuzidan himoya qilish bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar axloqi murakkab tuzilishga ega bo'lib, axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlardan tashkil topgan uch qismdan iborat.

Harbiy vatanparvarlik tuyg'usiga zid illatlarlarning ma'naviy-axloqiy hayot uchun zararli jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Munofiqlik. Munofiqlikning illat sifatidagi ma'naviy zarari shu qadar kattaki, unda yovuzlik pinhona, zimdan, kutilmagan holatda amalga oshiriladi. Shu bois munofiqlar e'tiqodi buzuq odamlar sifatida qoralanadi. Masalan, Islom manbalarida "munofiqlik"ni odamlar ko'z o'ngida Islom diniga mansubligini e'lon qilib, hatto ba'zi amallarni ham qilib yuradigan, aslida e'tiqodi buzuq bo'lgan kishilar sifatida baholanadi: "Munofiqlar esa, sirdan musulmon bo'lib ko'rinadilar, odamning ichidagini bilib bo'lmaydi, natijada ularga ham musulmoncha muomala qilishga majbur bo'linadi. Bu bilan munofiqlar dinga katta zarar etkazishlariga imkon yaratiladi". Qur'oni Karimning "Niso" surasida esa munofiqlik haqida quyidagi oyat mavjud: "Albatta, munofiqlar do'zaxning eng ostki qavatidadir va hargiz ularga bir yordamchini topa olmassan".. "Munofiqlarga, albatta, ularga alamli azob bo'lishining bashoratini ber. Ular mo'minlarni qo'yib, kofirlarni do'st tutadiganlardir. Ularning oldida izzat, kuch-qudrat izlaydilar mi? Albatta, izzat, kuch-qudratning barchasi Allohning huzuridadir".

Beparvolik. Uning illat sifatida harbiy vatanparvarlikka zid ekanligining eng havfli jihati shundaki, u doimo qo'lga kiritilgan narsa bilan qanoatlanib qoladi, izlanmaydi, oldinga intilmaydi. Beparvolik – kishilar o'zi uchun na ma'naviy, na moddiy javobgarlik sezmagani joyda vujudga keladi va u qabihlik bilan har vaqt yonma-yon yuradi. Shuning uchun harbiy xizmatchi la'natlashi yoki nafratlanishi, ma'qullashi yoki norozilik bildirishi mumkin, ammo hech qachon beparvo bo'lmasligi kerak. Vaholangki, nafratni sir tutish oson, sevgini yashirsa bo'ladi, beparvolikni esa sir saqlash juda ham mushkul, chunki, beparvolik millat, xalq va davlatning baxtu omadini halok etishi mumkin



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Qo'rqoqlik. Qo'rqoqlikni harbiy uchun zarari shundaki, u irodani susaytiradi, shijoatni so'ndiradi, foydali harakatlardan to'xtatadi. Qolaversa, qo'rquv xushomadgo'ylikni vujudga keltiradi. Xushomadgo'ylik esa harbiyga mutlaqo xos bo'lmagan odat. Odatda, qo'rqoqlik nima qilish lozimligini bila turib, uni qilmaslik natijasida yuzaga keladigan nohush holat sifatida baholanadi. Shuning uchun askarning qo'rqoqligi xoinlik va kurashda xiyonatkorlikka tenglashtiriladi. Shu bilan birga, bunyodkorlik va jasoratdan bosh tortgan odam ham qo'rqoq hisoblanadi.

Sotqinlik. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tuyg'usiga zid bo'lgan eng katta illat - sotqinlikdir. Sodiq kishi sadoqatni qo'ldan bermaydi, sotqin esa xoinlik qiladi, qahramon oxirigacha kurashadi, nomard esa yarim yo'lda qochib ketadi. Ma'lumki, odamlarda kuch va zaiflik, mardlik va qo'rqoqlik, qat'iylik va ikkilanish kabi fazilat va illatlar yonma-yon yuradi. Bunday illatlar gohida holatga, vaziyatga yoki real voqelikdagi harakatga qarab oqlanadi. Biroq, sotqinlik hech qachon oqlanmaydi. Ayniqsa, harbiy xizmat burchidagi sotqinlik davlat, jamiyat va millat taraqqiyotiga katta zarar etkazishi bilan yovuzlik hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kasb axloqi har bir kasbda bo'lgani kabi harbiylar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ularning kasbi biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, juda sharafli va ma'suliyatli kasbdir. Agar har bir askar o'z kasb axloqiga jiddiy yondashmas ekan, atrofdagi boshqa insonlarda o'z shaxsiyatlari va kasblari haqida noto'g'ri tasavvurlarga ega bo'lib qolishlariga olib kelishi mumkin.

Harbiy qahramonlik tarbiyasi jabhasidagi hukumatga doir tuzilmalar faoliyatining tarixiy tajribasini o'rganish mamlakatimiz tarixiy fani uchun nihoyatda dolzarbdir.

Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish ularning xalq, millat va vatan tarixini chuqur bilishlari, ajdodlarga munosib avlod bo'lib voyaga etishlarini ta'minlash bilan birga, vatanparvar insonga xos muhim ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon eta olishlari uchun ham sharoit yaratadi.

Millat tarixidagi fojعالardan qayg'urish milliy iftixor tuyg'usi negizidagi ko'zga tashlanuvchi muhim xislatlardan biridir. Ayni o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, Vatan ozodligi yo'lida olib borilgan kurashlar millat vakillarida vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'usini yanada mustahkamlaydi. Shonli kurashlar tarixi esa ajdodlarning avlodlarga ko'rsatuvchi ibrati bo'lib, yosh avlod ular bilan iftixor qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harbiy fakultet talabalarini harbiy xizmatga tayyorlashda axloqiy tarbiyani ahamiyati. ijodkor o'qituvchi,
2. Sattorovich, a. u. (2023). Harbiylarning kreativ sifatlarini rivojlantirishda ta'limning ahamiyati.
3. Abduraupovich, P. B. (2023). O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

4. Sattorovich, A. U. (2023). Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoillari.
5. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir
6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
7. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. - Toshkent: O'zbekiston
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (22 dekabr 2017 yil)
9. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-tom. - Toshkent: O'zbekiston, 2019
10. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-tom. - Toshkent: O'zbekiston,
11. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: O'zbekiston. 12. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. -Toshkent: Ma'naviyat, 1998.